



Social norms as a crucial factor in maintaining orderly control in student audiences

Charoskhon SHAKIROVA ¹

University of Economics and Pedagogy

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised

form 15 August 2025

Accepted 15 September 2025

Available online

05 October 2025

Keywords:

social norms,
moral education,
moral norms,
student,
audience culture,
discipline,
socialization,
educational process,
pedagogical control.

ABSTRACT

This article analyzes the concept of social norms and their role and importance in the educational process, particularly in ensuring discipline among students. It highlights how norms form through the socialization of the student's personality, their conscious acceptance, and the impact of this process on educational quality. The paper scientifically and methodologically substantiates the importance of social norms in shaping students' character and maintaining classroom discipline. It also examines the teacher's role in cultivating classroom culture and offers recommendations for creating effective order based on social norms.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5-pp217-223>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ijtimoiy me'yor – talabalar auditoriyasida tartibli nazoratning muhimi omili sifatida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ijtimoiy me'yor,
axloqiy tarbiya,
axloqiy normalar talaba,
auditoriya madaniyati,
tartib-intizom,
ijtimoiylashuv,
ta'lim jarayoni,
pedagogik nazorat.

Mazkur maqolada ijtimoiy me'yorlar tushunchasi, ularning ta'lim jarayonida, xususan, talabalar auditoriyasida tartib-intizomni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Talaba shaxsining ijtimoiylashuvi jarayonida me'yorlarning shakllanishi, ularni ongli ravishda qabul qilishi va bu jarayonning ta'lim sifatiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy me'yorlarni talaba shaxsini shakllantirish va auditoriyadagi tartib-intizomni ta'minlashdagi ahamiyatini ilmiy-metodik jihatdan asoslab berildi. Auditoriya madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining

¹ Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, University of Economics and Pedagogy.
E-mail: charosxon7677@gmail.com

roli, hamda ijtimoiy me'yorlar asosida samarali tartibni yaratish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Социальная норма – как важный фактор поддержания дисциплины в студенческой аудитории

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

социальные нормы,
нравственное воспитание,
моральные нормы,
студент,
культура аудитории,
дисциплина,
социализация,
образовательный процесс,
педагогический контроль.

В статье анализируется понятие социальных норм, их роль и значение в образовательном процессе, в частности в обеспечении дисциплины в студенческой аудитории. Освещены вопросы формирования норм в процессе социализации личности учащегося, их осознанного принятия, а также влияние этого процесса на качество образования. Научно и методически обоснована значимость социальных норм в формировании личности ученика и обеспечении дисциплины в классе. Приведена роль педагога в формировании культуры аудитории, а также рекомендации по созданию эффективного порядка, основанного на социальных нормах.

KIRISH

O'zbekistonimizda o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida axloqiy me'yorlar muhim o'rin tutadi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda pedagog xodimlarning axloqiy normalarga amal qilishi, kasbiy faoliyatda halollik va odob-axloqni saqlash majburiyati ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchi shaxsiga alohida e'tibor qaratiladi.[1] Unga ko'ra, oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Ijtimoiy me'yorlar huquqiy, pedagogik va ma'naviy hujjatlarda keng va izchil ifodalangan bo'lib, ular shaxsning ijtimoiy hayotga tayyorlanishida asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Ular nafaqat jamiyatda barqarorlikni ta'minlaydi, balki kasbiy kompetensiyaning muhim elementi sifatida qoraladi.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri – bilim berish bilan bir qatorda, talabalarda ijtimoiy va axloqiy madaniyatni shakllantirishdir. Shaxsning jamiyatda o'zini tutish qoidalarini belgilab beradi va bu jarayon ayniqsa yoshlar – talabalarining auditoriyadagi xatti-harakatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Talabalarining o'zaro munosabatlari, o'qituvchi bilan muloqoti, darslarga munosabati va umuman auditoriya madaniyati bevosita ijtimoiy me'yorlarga amal qilish darajasiga bog'liq. Ta'lim muassasalarida intizom va tartibni saqlash – nafaqat tashkiliy jarayon, balki murakkab ijtimoiy-psixologik mexanizmdir. Ushbu mexanizmda ijtimoiy me'yorlar muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy me'yorlar — bu jamiyat tomonidan tan olingan, shaxslar xulq-atvorini tartibga soluvchi axloqiy, huquqiy va madaniy qoidalardir.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Oliy ta'lim muassasasida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlar, dars jarayonining samaradorligi, guruh ichidagi ijtimoiy muhit aynan mana shu me'yorlar

asosida shakllanadi. Bugungi kunda ta'lim tashkilotlarida talabalar faolligi, mas'uliyati va mustaqilligi tobora kuchayib bormoqda. Shu sababli, tartib-intizomga erishish ma'muriy choralar bilan emas, balki ijtimoiy ong va ichki madaniyatni yuksaltirish orqali amalga oshirilishida ijtimoiy me'yorlarning o'rni kattadir.

MAVZU BO'YICHA ILMIY IZLANISHLARNING QISQACHA TAHLILI

Talabalar auditoriyasida tartibli nazoratni ta'minlashda ijtimoiy me'yorlarning o'rni va ahamiyati haqida ko'plab ilmiy va nazariy manbalarda fikr yuritilgan. Mazkur mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy me'yorlar shaxsning jamiyatdagi ijtimoiylashuvi, xulq-atvori, axloqiy pozitsiyasi va o'zini tutish madaniyatini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Ijtimoiy me'yorlar jamiyatda ijtimoiy tartib va muvozanatni saqlovchi asosiy vosita sifatida ko'riladi. Bu borada klassik sotsiologlar — E. Dyurkgeym [4] va T. Parsonz [8] asarlarida ijtimoiy me'yorlar ijtimoiy institutlar faoliyatining barqarorligini ta'minlovchi omil sifatida talqin qilingan. Ularning nazariyalariga ko'ra, har bir shaxs ijtimoiy hayotga moslashishda aynan ijtimoiy me'yorlarga amal qilgan holda harakat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda esa ijtimoiy me'yorlarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni alohida o'rganilgan. Xususan, V. G. Bocharova [18] va L. I. Novikova [19] kabi pedagoglar o'z izlanishlarida o'quv muassasalarida axloqiy tarbiyani ijtimoiy me'yorlarga tayangan holda amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, o'quvchi va talaba shaxsi ijtimoiy axloqiy qoidalarga asoslangan pedagogik jarayon orqali shakllanadi[2].

O'zbekiston olimlari, jumladan, Yo.To'raxo'jayev [13], B.N.Qodirov [9], Sh.A.Sharipovlarning [11] tadqiqotlarida ta'lim jarayonida talabalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish hamda auditoriyada tartibli muhit yaratishda ijtimoiy me'yorlarga asoslangan yondashuv muhim ekani ko'rsatib berilgan. Ayniqsa, Sh.A.Sharipovning "Ta'limdagi axloqiy me'yorlar va nazorat mexanizmlari" nomli maqolasida zamonaviy pedagogik muhitda nazoratning adolatli, ob'ektiv va tarbiyaviy jihatdan samarali bo'lishi aynan ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga asoslangan holda tashkil etilishi ta'kidlanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim tashkilotlarining "Ichki tartib qoidalari"da ham ijtimoiy me'yorlar talabalarining o'qishdagi muvaffaqiyati, darslardagi ishtiroki, axloqiy madaniyati va tartib-intizomini ta'minlovchi muhim vosita sifatida e'tirof etilgan.

Mavjud adabiyotlar asosida olib borilgan izlanishlar talabalar auditoriyasida tartibli nazorat tizimini shakllantirishda ijtimoiy me'yorlarning zaruriy va ajralmas omil ekanini asoslab beradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda ijtimoiy me'yorlar tushunchasini ochib berish, hamda ijtimoiy me'yorlarni talaba shaxsini shakllantirish va auditoriyadagi tartib-intizomni ta'minlashdagi ahamiyatini ilmiy-metodik jihatdan asoslab berish nazarda tutildi. Ijtimoiy me'yorlar va talabalar auditoriyasidagi tartib-intizomni ta'minlashdagi o'rni o'rganildi. 2024/2025-o'quv yilida Andijon pedagogika institutining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishining 3-bosqich 67 nafar talabalari, shuningdek, University of economics and pedagogy (NOTM) ning 1-bosqich Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining 77 nafar talabalari ishtirok etdi. Tadqiqot sifatida sifatli tahlil, kuzatuv va anketalar o'tkazildi. Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar va o'qituvchilar bilan suhbatlar tashkil etilib, ijtimoiy me'yorlarning ta'lim jarayonidagi roli va ta'siri chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqotda kontent tahlili, statistika va so'rovnomalar metodlari qo'llanildi. Shuningdek, guruh ichidagi muloqot va ijtimoiy aloqalar tizimi o'rganildi.

Ijtimoiy me'yorlar talabalarning kundalik hayotida qanday harakat qilish kerakligini belgilab beradi. Masalan, darsga o'z vaqtida kelish, dars mashg'ulotida telefonni o'chirib qo'yish, darsga tegishli bo'lgan darslik va o'quv qurollari bilan ishtirok etish, darslarda o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ishlarga chalg'imaslik, o'qituvchiga murojaat qilmoqchi yoki savoliga javob bermoqchi bo'lganda ruxsat so'rash, tinglash malaniyati, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmat, savol-javob paytida boshqaning fikrini bo'lmasdan eshitib so'ngra javob berish madaniyati — bularning barchasi ijtimoiy me'yorlar doirasiga kiradi. Talaba ijtimoiy me'yorlarni ongli ravishda qabul qilgan sari, uning axloqiy me'zonlari mustahkamlanadi. Bu esa o'z navbatida uning shaxs sifatida shakllanishiga, o'qishga bo'lgan munosabatiga va atrofdagilarga hurmat bilan qarashiga olib keladi. Bunday me'yorlar orqali o'z-o'zini boshqarish, ichki intizom, javobgarlik tuyg'usi rivojlanadi Auditoriya madaniyati — bu talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, hamkorlik va xatti-harakatlarning me'yorlashtirilgan tizimidir. Unda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

- ✓ o'zaro muloqot madaniyati;
- ✓ dars jarayonidagi faol ishtirok;
- ✓ talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ishonch;
- ✓ jamoada o'z o'rnini anglash va mas'uliyatni his qilish.

Ijtimoiy me'yorlar orqali tartib nazoratini olib borish ma'muriy jazolardan ko'ra samaraliroq bo'lishi mumkin. Masalan, biror talabani o'qituvchi oldida turgan vazifalarni bajarmaganlik uchun tanqid qilishdan ko'ra, butun guruh oldida jamoaviy baho berish orqali ijtimoiy ta'sir kuchaytirilsa, natija ancha ijobiy bo'ladi. Jamoaning ichki fikri, rasmiy va norasmiy yetakchilarning ta'siri, ijtimoiy qabul qilingan xatti-harakatlar modeli shaxsga ta'sir o'tkazadi. Ushbu tadqiqotda tahlil va sintez – ijtimoiy me'yorlar to'g'risidagi ilmiy manbalar o'rganilib umumlashtirildi, pedagogik kuzatuv, ya'ni talabalar auditoriyasidagi xatti-harakatlar, intizom darajasi va o'zaro munosabatlar real ta'lim muhitida kuzatilib xulosalar qilindi. Taqdim va tavsiflash orqali ijtimoiy me'yorlarning amaliy ifodalanish shakllari tavsiflandi hamda taqqoslash – axloqiy me'yorlarga amal qiluvchi va qilmaydigan talabalar guruhlaridagi farqlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy me'yorlar talabalar auditoriyasida tartib-intizomni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Talabalar o'z vaqtida darsga kelish, o'zaro hurmatni saqlash va faollikni namoyish qilish kabi me'yorlarni qabul qilish orqali nafaqat shaxs sifatida shakllanishadi, balki ularning ta'limdagi muvaffaqiyatlari ham oshadi. Ijtimoiy me'yorlar, shuningdek, o'z-o'zini boshqarish, ichki intizomni rivojlantirishga yordam beradi. Me'yorlarga asoslangan nazorat samarali va ijobiy natijalarga olib keladi. Bunda pedagoglar jamoasini, ya'ni o'qituvchilarning roli katta. Ular talabalar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, me'yorlarni qo'llash va ularga amal qilishni ta'minlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Talabalar auditoriyadagi intizom o'z o'rnida ijtimoiy me'yorlarga bevosita ta'siri etadi. Talabalar auditoriyasida quyidagi holatlar ijtimoiy me'yorlarga amal qilishning real ifodasi sifatida qayd etildi:

- ✓ Vaqtga rioya qilish – darslarga o'z vaqtida kelish.
- ✓ Akademik halollik – mustaqil ishlarda ko'chirmachilikdan tiyilish, imtihonlarda adolatli baholanishga intilish.

✓ O'zini tutish madaniyati – auditoriyada shovqin qilmaslik, boshqalarning darsni anglashiga xalal bermaslik.

✓ Axloqiy muhit – o'qituvchiga va guruhdoshlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Shuningdek, universitetlar kesimida olib borilgan monitoringlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy me'yorlarga oid mashg'ulotlar o'tkazilgan guruhlarda tartib-intizom darajasi yuqoriroq bo'ladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy me'yorlar talabalar o'rtasida samarali tartib-intizomni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ijtimoiy me'yorlarni shakllantirish orqali talabalar o'z-o'zini boshqarish va ichki intizomni rivojlantirishadi. Bu o'z navbatida dars jarayoniga faollik kiritib, ta'lim sifatini oshiradi. Ijtimoiy me'yorlar asosida barpo etilgan ta'lim muhiti esa talabalar o'rtasidagi ijtimoiy birdamlikni oshiradi va o'qituvchilarga samarali pedagogik nazorat o'rnatishga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy me'yorlar quyidagi asosiy turlarga ajraladi:

- ✓ Axloqiy me'yorlar – shaxsiy mas'uliyat, halollik, hurmat, odob kabi fazilatlarni shakllantiradi. Bu me'yorlar talabalar o'rtasidagi sog'lom muhitni yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega [1].
- ✓ Huquqiy me'yorlar – oliy ta'lim muassasalarida ichki intizom qoidalari, davomat, tartib va axloqiy-xulq normalariga rioya qilishni ta'minlaydi [15].
- ✓ An'anaviy me'yorlar – milliy qadriyatlar asosida shakllanib, talabaning madaniy ongini, milliy g'ururini rivojlantiradi [11].

Ijtimoiy me'yorlarning talaba intizomi va faolligiga ta'siri (tajriba va nazorat guruhlarida misolida)

Me'yor turi	Baholash mezon	Tajriba guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)
Axloqiy me'yorlar	O'zaro hurmat va madaniyat, o'z vaqtida kelish, adolatli munosabat	92%	63%
Huquqiy me'yorlar	Davomatga rioya qilish, intizomiy holatlar	94%	70%
An'anaviy me'yorlar	Milliy qadriyatlarga hurmat, jamoaviylik va birdamlik hissi	89%	65%
Umumiy natijalar	Darsdagi faollik, ishtirok, o'zini tutish madaniyati	91%	66%

XULOSA

Ijtimoiy me'yorlar talaba shaxsining shakllanishida va auditoriyada tartibni saqlashda muhim vositadir. Ular orqali tashqi nazorat ichki mas'uliyatga aylantiriladi. Ijtimoiy me'yorlar asosida barpo etilgan ta'lim muhiti esa ta'lim sifati va tarbiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ijtimoiy me'yorlar talabaning auditoriyadagi xatti-harakatlari, jamoadagi muvozanat va axloqiy pozitsiyasini belgilovchi muhim omildir. Ushbu me'yorlarni samarali singdirish orqali oliy ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni shakllantirish, shuningdek, kasbiy jihatdan barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli kadrlar tayyorlash mumkin. Pedagogik jarayonda ijtimoiy me'yorlarning faol qo'llanilishi ta'lim sifati va tarbiya samaradorligini oshirishning strategik omili hisoblanadi.

Ijtimoiy me'yorlar — bu jamiyatda qabul qilingan axloqiy, huquqiy, madaniy va odob-axloq qoidalari bo'lib, ular shaxslararo munosabatlarni tartibga soladi hamda ijtimoiy intizomni ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasalarida ushbu me'yorlarning talaba shaxsining shakllanishida va auditoriyada tartibni saqlashdagi roli nihoyatda muhimdir. Aynan ijtimoiy me'yorlar orqali tashqi nazorat ichki mas'uliyat tuyg'usiga aylantiriladi, bu esa talabada o'z xatti-harakatlariga ongli va mas'uliyatli yondashuvni shakllantiradi.

Ta'lim muhitida ijtimoiy me'yorlarning faol tatbiq etilishi nafaqat dars jarayonida intizomni ta'minlaydi, balki talabalar orasida o'zaro hurmat, jamoaviylik, adolat va axloqiy mas'uliyat kabi fazilatlarni mustahkamlaydi. Bunday muhit esa sog'lom raqobatga, ijtimoiy faollikka va ijodiy yondashuvga undovchi omilga aylanadi. Shuningdek, talabalar orasida nizolarning oldi olinadi, mehr-oqibat va birdamlik kuchayadi, bu esa o'z navbatida ta'lim samaradorligini oshiradi.

Ijtimoiy me'yorlar asosida shakllangan akademik muhitda talaba nafaqat o'zining intellektual salohiyatini ro'yobga chiqaradi, balki kasbiy etika, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik burchi kabi muhim jihatlarni ham o'zlashtiradi. Bu esa kelajakda nafaqat o'z sohasi bo'yicha yetuk mutaxassis, balki jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qiluvchi barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, pedagogik jarayonda ijtimoiy me'yorlarning faol qo'llanilishi ta'lim sifati va tarbiya samaradorligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Ular orqali sog'lom, barqaror, ma'naviy jihatdan boy va axloqan yetuk muhit yaratiladi, bu esa nafaqat oliy ta'lim muassasasining, balki butun jamiyatning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy tavsiyalar: Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy me'yorlar bo'yicha modul asosida mashg'ulotlar tashkil etish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ✓ Axloqiy kodekslar ishlab chiqish va ularni talabalarga tanishtirish.
- ✓ Pedagogik vaziyatlar asosida treninglar o'tkazish.
- ✓ O'qituvchilarning shaxsiy namunaviy xulqi orqali ijtimoiy me'yorlarni ongli tarzda singdirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Ta'lim to'g'risidagi Qonun (23.09.2020). <https://lex.uz/acts/5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabr kungi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
4. Durkheim E. The Rules of Sociological Method. Paris: Alcan, 1895.
5. Giddens A. Sociology. 7th edition. Cambridge: Polity Press, 2013.
6. G'ulomov S., Murodova Z. Oliy ta'lim pedagogikasi. – T.: Ilm Ziyo, 2021.
7. Komilova M. Ta'limda ijtimoiy psixologik muhit. – T.: Fan, 2020.
8. Parsons T. The Social System. Glencoe, IL: Free Press, 1951.
9. Qodirov B.N. Oliy ta'limda tarbiya jarayonining metodikasi. Toshkent: Fan, 2020.
10. Rasulov Sh. Pedagogik etika asoslari. – Toshkent: TDPU, 2019.
11. Sharipov Sh. A. Ta'limdagi axloqiy me'yorlar va nazorat mexanizmlari. Ilm va taraqqiyot, 4 (2), 2020, 45–50.
12. Sharipova S. Milliy qadriyatlar va yoshlarda ijtimoiy ongini shakllantirish. – "Ta'lim va taraqqiyot", 2022, №4.

13. To'raxo'jayev Yo. Pedagogika asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
14. UNESCO. Teaching Ethics and Academic Integrity in Higher Education. Paris: UNESCO Publishing, 2020.
15. Xolbekov A.X., To'xtayev E.M. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2020.
16. Yusupov A. Zamonaviy ta'lim nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2023.
17. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2002.
18. Бочарова В.Г. Социология образования. Москва: Просвещение, 1989.
19. Новикова Л.И. Воспитательный процесс в школе. Москва: Педагогика, 1975.